



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 29.01.2022 г. № 12-10/141

между "HUDUDGAZTA'MINOT" AJ и Угом Чоткол Давлат миллий табиат боги бошкармаси на общую сумму 4799520,00

Глава _____ 142
Казначейский лицевой счёт _____ 100021860272247042202142001

(в суммах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4222000			
Январь	1 399 860,00			1 399 860,00
Февраль	1 399 860,00			1 399 860,00
Март	1 999 800,00			1 999 800,00
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	4 799 520,00			4 799 520,00

Всего 4799520,00 сум

Четыре миллиона семьсот девяносто девять тысяч пятьсот двадцать сум 00 тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы _____ сум или _____ % *** от общей суммы договора подлежат предоплате в _____ мес. 20__ г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

(Handwritten signature)
(подпись)

Мирзакулов Уматкул Маматкулович
Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(Handwritten signature)
(подпись)

Нишонбоева Г. А.
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения _____


(подпись)

Получил работник заказчика _____

(подпись)

«__» _____ 20__ г.

«__» _____ 20__ г.



HGT

HUDUDGAZTA'MINOT

AKSIYADORLIK JAMIYATI

«HUDUDGAZ TOSHKENT»

gaz ta'minoti filiali

**TABIIY GAZNI ULGURJI
ISTE'MOLCHILARGA
ETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH
SHARTNOMASI**

№12- 10 / 144 -son

Iste'molchi nomi: Yoz-yoz - romkor D.M.Ju.B

Iste'molchining xos raqami № 10070942802

Faoliyat turi: Qayuc



Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga etkazib berish va qabul qilish

ShARTNOMASI

2022 yil "29" yanvar №12-10 / 141 -son

Nurafshon shaxar
(shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi « Yasol - Tomson D. Ushbu

(Iste'molchi nomi)(keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbar

Shayxoviyev Yuliyevna deb ataladi), rahbar

bir tomondan hamda Nizom va 2022 yil 5 yanvarda berilgan 03-19-11/41-sonli

ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali (gaz

ta'minoti tashkiloti nomi)(keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbar

M.R. Aliyev ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnoman

tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan

buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini

oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni

qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga

oshiradi.

1.2. Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihasiga muvofiq, gazda

foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, elektron gaz

hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda Etkazib

beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish

qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat

nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojini taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmi

qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha etkazib beriladiga

gaz hajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 7278 etkazib beriladiga

660 ming so'mni tashkil qiladi, jumladan choraqlar va oylar bo'yicha quyidagilari

taqsimlanadi:

I chorak	<u>7278</u>	mingkub.m,	yanvar	<u>1111</u>	fevral	<u>2121</u>	mart	<u>3030</u>
II chorak	<u>-</u>	mingkub.m,	aprel	<u>-</u>	may	<u>-</u>	iyun	<u>-</u>
III chorak	<u>-</u>	mingkub.m,	iyul	<u>-</u>	avgust	<u>-</u>	sentabr	<u>-</u>
IV chorak	<u>-</u>	mingkub.m,	oktabr	<u>-</u>	noyabr	<u>-</u>	dekabr	<u>-</u>

Etkazib beruvchi tomonidan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistrat va gaz

taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy

ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi

ming kub metrni, shu jumladan, choraqlar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

I chorak	<u>2</u>	mingkub.m,	yanvar	<u>2</u>	fevral	<u>2</u>	mart	<u>2</u>
II chorak	<u>2</u>	mingkub.m,	aprel	<u>2</u>	may	<u>2</u>	iyun	<u>2</u>
III chorak	<u>2</u>	mingkub.m,	iyul	<u>2</u>	avgust	<u>2</u>	sentabr	<u>2</u>
IV chorak	<u>2</u>	mingkub.m,	oktabr	<u>2</u>	noyabr	<u>2</u>	dekabr	<u>2</u>

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Etkazib

beruvchi tomonidan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda

taqsimlanadi.

1.6. Etkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni

taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi

numkin. Iste'molchi tomonidan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari

o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat

ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda

GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq

tarzdagi tabiiy gazni Etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Etkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan

joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yori doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy

oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Etkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi

va shartlari o'zgariganligi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

Ularagep Kpp toku Pypsam Kyzacu 11844

70-7000901

2.4. Etkazib beruvchi Iste'molchini gaz etkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat

avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistrat gaz quvurlarida yuz bergan avariya holatlari bundan

mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki

to'xtatiladi.

3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi va Etkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGHNAT-ASKUG) lariga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'z DST 8.030-2008 "Yoqilg'i va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DST 8.031-2008 "Yoqilg'i va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining joriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikat va/yoki metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining qiyoslov ko'rikdan va/yoki metrologik attestatsiyasidan o'tish davrini "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari egasi gaz o'lchash priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov komplekslarini (va uning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibratlash, torayish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish xizmatlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibratlash, toraytirish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalariga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Etkazib beruvchining vakili gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'lchash priborlarini almashtirish, gazni o'lchashning boshqa usullarini tanlash masalalari Etkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat angidrid) gaz o'lchash priborining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

2.5. Magistr va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganda, shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemolchilarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida Etkazib beruvchi, Iste'molchini ogohlantirgan holda gaz etkazib berishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega, Iste'molchi esa xaxira yoqilg'i turidan foydalanishga o'radi.

2.6. Iste'molchi etkazib beruvchi bilan gaz etkazib berish-qabul qilish doirasida tezkor ma'lumotlarni muntazam almashishni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi xaxira yoqilg'i turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni Etarli miqdorda (3 oydan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Iste'molchi Etkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq xaxira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz etkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GTP (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalaridan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan holda Iste'molchi, Etkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi yoki Etkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgarigan holatlarda ular zudlik bilan bir-birini bu haqida xabardor qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi va Etkazib beruvchining talablarini bajarish, Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

III. ETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH

3.1. Gazni hisobga olmasdan etkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. Etkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikk tomon imzolaydigan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi hisoblanib) Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi, tegishligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilish shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitda 1 m³ gaz olinadi: xarorat 20° C, bosim 101,325 kPa (760 mmHg) (GOST 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat angidrid) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'yoriy-xuquqiy hujjatlari talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. Etkazib beruvchining yoki Iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.

Gaz o'ldash priborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'ldash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. Etkazib beruvchi, Iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida etkazib berilishini ta'minlaydi.

3.14. Etkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'ldash priborlariga va/yoki o'ldash kompleksining gaz hajmini o'ldashga ta'sir qiladigan qismlariga Iste'molchi ishtirokida o'ldatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'ldatilgan tamg'alarini butligiga Iste'molchi javobgardir.

3.15. Etkazib beruvchi Iste'molchining gaz o'ldash priborlari va/yoki o'ldash komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xuquqiga ega. Shu bilan birga, Iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Etkazib beruvchi vakillarining o'ldash priborlari va/yoki o'ldash komplekslariga to'siqsiz kirishini ta'minlaydi.

3.16. O'z DST 8.586.(1-5)-2005 bo'yicha o'ldash komplekslari va o'ldash priborlari ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DST 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'ldash qurilmasi va/yoki o'ldash kompleksi faoliyatiga ruxsatsiz aralashish holatlari bundan mustasno.

3.17. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tamg'alanmagan gazda foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli - gazni hisoblash pribori va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganda, gazni hisoblash priborini chetlab o'tgan xolda iste'mol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlanga kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda - oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) hisobga olish pribori buzilganda (hisobga olish pribori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) - shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan xolda bir hisob kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pribori mavjud bo'lmaganda - qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun Echlilganda - hisobga olish pribori echlilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovda o'tkazilib, sertifikat olib joyiga o'ldatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish priborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'ldash kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda - qiyoslov ko'rigidan metrologik attestatsiya o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun Echlilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

e) hisobga olish pribori yoki o'ldash kompleksining qismlariga o'ldatilgan tamg'alarining butligi buzilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab lekin bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) hisobga olish priborini o'ldash uchun echlilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

z) gazni tarqatish tarmoqlarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTPlarida asbob-uskunalar o'ldatilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

i) Gaz hisoblash uskunasi konfiguratsiyalariga noqonuniy tarzda tashqi ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqlanganda - tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga olish priborining xotirasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'ldashni avtomatlashirilgan tizimidan hisob o'yida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki Etkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda. (Hisob-kitob uchun TGHNAT (ASKUG) tizimi joriy qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHNAT tizimida qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi);

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'ldash chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plombalanmagan gaz jihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa - gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan ohirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz qurilmasi o'ldatish holati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarini o'ldatib olib foydalanayotganlik fakti bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo'lganida) - bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pribori gaz hajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pribori va/yoki o'ldash kompleksining me'yoriy-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'ldash chegarasida olinadi.

3.19. Etkazib beruvchi tomonidan etkazib beriladigan gaz hajmining ishonchligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'ldash komplekslari va hisoblash priborlarining ishlashi buzilgan holatlar aniqlanganda, Etkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'lmaganda o'ldash komplekslari va gazni hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'ldash komplekslari va hisoblash priborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan, soz holatda bo'lganda esa - ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pribori ishdan chiqandayoki hisobga olish priboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqlangan taqdirda Iste'molchi 24 soat ichida Etkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. Shuningdek korxonadagi gaz ishlataadigan asbob-uskunalarini ishlash grafagini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini Etkazib beruvchi bilan birgalikda o'ldatib tamg'alanishini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish priborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitoblar ohirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga amalga oshiriladi. (O'z DST 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari germetik holatda bo'lishi kerak).

IV. ETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI AMALGA OSHIRISH

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida etkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Etkazib beruvchining hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oyluk gaz hajmi qiyomatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin, gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summamasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob, hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz etkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berish shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisob olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olinga taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1 ko'effitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priborini almashtirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish va sozligini monitoring qilish uchun echib olish, shuningdek, Iste'molchiga aloqada bo'lmagan turli hil (elektr ta'minoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k.)dagi texnik nosozliklarni aniqlanganligi sababli, iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini ta'mirlash quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Iste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari, Iste'molchini xabardor qilgan holda qarzni qoplashi yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtida to'lanmaganida, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summamasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summamasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob o'yida etkazib berilgan tabiiy gaz hajmi Etkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNA) ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno) asosida keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar «Askugyur» tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchi tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmat vositalaridan foydalanilgan holda kiritish orqali aniqlanadi.

4.13. Shartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi oyning 5 kungacha qadar Etkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz Etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan iste'molchiga elektron hisobvaraqa-faktura yuboriladi.

4.14. Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hotirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, Iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQlardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobiga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi oyning 7 kunitdan kechiktirmasdan Etkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvaraqa-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan debitor qarzlarni undirish, Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zboshimchalik bilan qayta ulanganida, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgarigan taqdirda, Etkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgariganida, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kunitdan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNIY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Etkazib beruvchi va

- gaz hisoblash uskumalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini ta'minlash;

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilguniga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishsiz tarmoqdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- Iste'molchiga gaz Etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni Etkazib berish;

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Etkazib beruvchi va vakolati davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarni texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish;

- tabiiy gaz sizib chiqishida — darhol;

- ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- isitish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) — ikki kun davomida;

- Gazdan foydalanish uskunalarni 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Etkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratga ko'ra, Iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni Etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

- gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

- Iste'molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini va gazni Etkazib berish shartnomasini talablariga roya etishni talab qilish;

- tabiiy gazni Etkazib berish shartnomasini ijro qilishdan qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

- gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarini ko'rish zarurati yuzaga kelganda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan qoidabuzarliklar

Iste'molchi vakillari tomonidan imzolangan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1.-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Iste'molchidan, foydalangan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2.-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi Iste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA

ULANISH TARTIBI

6.1. Iste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu holatlarning bartaraf etilguniga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;

- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va hisobga olish qurilmalarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;

- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

- shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;

- Etkazib beruvchining va "O'zneftgazinspeksiya" ning ko'rsatmalarini bajarilmaganda;

- hisoblash priborlariga qasddan zarar etkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;

- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;

- Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taroj qilish holatlari aniqlanganda;

Bunda Etkazib beruvchi, gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida Etkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashirilgan tizimi (TGHNAT) lariga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

7.1. Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;

- o'ziga qarashli gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlar aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish; - tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida Iste'molchilarni xabardor qilish;